



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL  
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

# Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com)

<https://oak.uz/pages/4802>

2023-yil. 12-sod

## 18-NOYABR O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BAYROGI QABUL QILINGAN KUN

Abdulla Oripov

O'zbekiston Qahramoni

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
DAVLAT MADHIYASI



Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,  
Sen o'zing do'stlarga yo'llosh, mehribon!  
Yashnagay to abad ilmu fan, ijod,  
Shahrating porlasin toki bor jahon!

*Naqarat:*

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,  
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng ozbekning ochmas iymoni,  
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!  
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,  
Haqsevar, ona yurt, mangu bo'l obod!

*Naqarat:*

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,  
Olamni mahliyo aylagan diyor!



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL  
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

# Til va adabiyot. uz

## Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

## Tahrir hay'ati:

Dilshod Kenjayev  
Nizomiddin Mahmudov  
Yorqinjon Odilov  
Jabbor Eshonqulov  
Baxtiyor Daniyarov  
Abdurahim Nosirov  
To'lqin Saydaliyev  
Barno Buranova  
Zulkumor Mirzayeva  
Qozoqboy Yo'ldoshev  
Salima Jumayeva  
Qayum Baymirov  
Manzar Abdulkayrov  
Aljon Safarov  
Madina Nuriddinova  
Latifa Xudadayqulova  
Barno Kadirova  
Nargiza Mirzayeva  
Guli Shukurova  
To'maris Butunbayeva  
Рамзиддин Абдусаторов

## Axborot hamkorimiz:



## Muharrirlar:

Lutfullo JO'RAYEV  
Bibimaryam RAHMONOVA  
Oydin SHUXRATOVA

## Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

## Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri  
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.  
Telefon: (98) 121-74-16,  
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45, (71) 233-03-67.  
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com



Ilmiy-metodik elektron jurnal

## M U N D A R I J A

### Bir g'azal sharhi

Manzar Abdulkayrov. Fido jonimni aylab.....3

### Tadqiqot

Okila Turakulova, Hamid Ergashev. Shoir shaxsi va ijodiga xos samimiyat .....

Madina Daliyeva. Tilshunoslikda termin tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari.....8

Maxsuda Karimova. Milliy folkloristikamizning fidoiy vakili.....11

Rushana Nabiyeva. Yangi o'zlashayotgan taom nomlari xususida .....13

Pulat Fozilov. Ingliz va o'zbek tillari sistemasida fiziologik holat fe'llarining o'rni.....1

Sevara Yoqubova. Anonim xatlarda unli harflar imlosining shaxs yosh xususiyatiga ko'ra xoslanishi .....19

Manzura Shamsiyeva. Badiiy matnda peyzaj birliklari: tadqiqotning zamonaiviy yo'nalishlari va istiqbollari.....

Nilufar Toshpo'latova. Emotsional-ekspressiv munosabat ifoda etuvchi frazemalar tahlili.....

Tursunoy Yandashova. Go'zallik konseptining nazariy-metodologik asoslari.....

Dilfuza Shomalikova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik asoslari .....31

Dilfuza Kamoljonova. Xorijiy tajribalar asosida o'quvchilarning mutolaa kompetensyasini rivojlantirish.....33

Xikmat Xikmatov. Junaydillo Hoziqning lirk she'rlarining g'oyaviy mazmuni .....

Gulruh Ne'matova. "Правда востока" gazetasi va "Uzbekistan.travel.com" saytidagi materialarning tili, uslubi, janrlari....38

Sayyora Kurolova. Qolip konstruksiyalaring murakkab gaplarda qo'llanilish mezoni.....4

Nuriddin Dosanov. O'zbek tilida izohlovchining o'rni.....42

Zilola Sayitqulova. Oilaviy munosabatlarning o'zbek va ingлиз tilidagi mikrokonseptlari .....44

Shahnoza Rasulova. Hofiz va shoirning adabiy hamkorligi.....

Dilrabo Qodirova. Konchilik terminologiyasi tizimida o'zlashtirilgan terminlarning lingvistik va ekstraliningvistik jihatlari .....49

Manzura Pirnazarova. Omon Matjon ijodi Suvon Meli talqinida.....

Usenova Venera. Ingliz ertak matnlarida mifologemalarning gavdalaniishi .....54

Nargis Kudratxodjayeva. Eng kichik ma'no birliklari haqida .....5

Omadjon Azamov. Zoofrgmalarning leksik-grammatik tahlili.....58

Kamola Haydarova. O'zbek, rus va ingliz tillarida jiyya leksemasining lingvokulturologik xususiyatlari.....60

Gulnoza Shodiyeva. Training as a method of teaching intercultural competence.....62

*O'zbekiston Respublikasi Oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oly attestatsiya komissiyasi Rayasatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.*

<https://oak.uz/pages/4802>

<b>Sayyora Abdurashidova.</b> The contibution of some foreign prefixoids in word formation .....	64
<b>Ug'iloy Bolbekova.</b> The role of innovative technologies in teaching english .....	6
<b>Muhayyo Mo'minova.</b> The intericate tapestry of linguistic culture: a comparative analysis of english and uzbek.....	69
<b>Nigina Akhmedova.</b> Authentic materials and their features of the formation of sociocultural competence in theaching and learning .....	7
<b>Diyora Madjidova.</b> Interactive methods and modern approach in organizing the communicative english lesson .....	73
<b>Yulduz Sultonova.</b> Features of translation of english zoocomponent phraseological units into uzbek .....	7
<b>Muborak Sagatova.</b> The analysis of conceptual metaphor in media advertisement.....	76
<b>Sitora Xasanova.</b> The interplay od language and culture in literary concepts: a linguo-cultural perspective .....	7
<b>Firuza Khusainova.</b> The role of lifelong lerning for people of the third age .....	80
<b>Diana Abduramanova.</b> Lexical innovation and meta-semantic analysis: the influence of fiction on the creation and adaptation of invented words in a metalinguistic context .....	84
<b>Nodiraxon Karimova.</b> Наш язык, наша культура .....	88
<b>Diana Ruzmetova.</b> Интеграция искусств и креативных методов в преподавание английского языка: разработка мультимодальных уроков для стимуляции языкового развития .....	90
<b>D.A.Ubaydova.</b> Ги Де Мопассан - великий романист французской литературы.....	93
<b>Shaxnoza Tursunova.</b> Проблема изучения неполных предложений в языкоznании .....	96
<b>Muxiba Arabova.</b> Методика обучения русскому языку и культуре речи инофонов среднего и продвинутого этапов обучения по материалам аутентичных медиатекстов.....	
<b>Mashxura Xafizova.</b> Эффективность применения игровой педагогической технологии в вузе .....	10
<b>Elyanora Xalikova.</b> Бухарские реалии в рассказе Омона Мухтара «Птицы и сны».....	102
<b>Farida Umarova.</b> Обозначение времени на часах. Распорядок дня.....	106
<b>S.S.Ibragimova.</b> Один автор подписывается более чем одним псевдонимом.....	
<b>Otabek Yuldashev.</b> O'zbek shevalaridagi xalq maqollarining semantik tuzilishi va lingvistik-madaniy tasnifi.....	113
<b>Tahlil</b>	
<b>Umida Djalilova.</b> Tarjimada til va uning madaniy masalaları .....	11
<b>Sanobar Kamolova.</b> O'zbek antroponimlarining milliy-madaniy qirralari .....	1
<b>Xurshida Baratova.</b> "Boburnoma"da mehribon ona tasviri.....	120
<b>Surayyo Qurbonova.</b> O'zbek va ingliz tillarida "vaqt" zamon ko'satkichining qiyosiy tahlili.....	122
<b>Metodik tavsija</b>	
<b>Rayxona Tillayeva.</b> Adabiy darslarini noan'anaviy shakllarda tashkil etish usullari.....	126
<b>Saodat Kambarova, Karlygash Ashirkhanova.</b> Adabiyot darslarida "muallif nuqtayi nazari"ni o'rgatish tajribasidan .....	128
<b>R.X. Niyozmetova.</b> Adabiy matn va mustaqil fikrlash .....	
<b>Gulnora Yaxyoyeva.</b> Nemis tili darslarida talabalarning ijodi faoliik xususiyatini takomillashtirish.....	132
<b>Mo'tabarxon Bahridinova.</b> Raqamli texnologiyalarning nemis tilini o'qitishdagi ahamiyati .....	1
<b>Tilshunoslik</b>	
<b>Malika Rajapova, Alijon Mamajonov.</b> Allegoriyaning tasavvufda ishlatalishi.....	13
<b>Nodirakhon Khatamova.</b> The intersection of language acquisition and global consciousness in esp education .....	13
<b>Bayramali Kilichev.</b> Buxoro toponiimlarida rabot komponentining o'rni .....	
<b>Rohila Suwonova.</b> Joy nomlari bilan bog'liq metonomiya.....	143
<b>Nurbek G'aniyev.</b> Qiziltepa tumani toponiimiyasining lug'aviy asoslari .....	14
<b>Qodirjon Mo'ydinov.</b> Yuridik til leksikasining mavzuui guruhlari.....	147
<b>Aziza Ayaqulova.</b> Tibbiyot sohasiga oid terminlarning qiyosiy tipologik tadqiqi.....	1
<b>Gulshoda Begimova.</b> Linguistic description of the lexical level and its learning status .....	152
<b>Nurbek Ayaqulov.</b> Muayyan sohaviy terminologik tizimlarda turkumlashtirish masalalari.....	15
<b>Mulohaza</b>	
<b>Arofatoy Muydinova.</b> O'zbek adabiyotida muvashshahlarga doir adabiy munozaralar.....	157
<b>Kichik tadqiqot</b>	
<b>Sarvinoz Rasulova.</b> Sabr va sadoqat saltanatining so'nmas malikasi Zulfiyaxonim .....	158
<b>Mavluda Mirzayeva.</b> Chet tili darslari jarayonida kasbga yo'naltirib o'qitish orqali talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirish.....	1
<b>Mohidil Temirova.</b> Olmosh so'z turkumi haqida ba'zi mulohazalar.....	162
<b>Sh Bobojonov.</b> Ijodiy hamkorlik .....	165

2. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Kafolat print company, 2021. – 544 б.
3. Умумий ўрта ва ўрта маҳсус, қасб-хунар таълим мининг давлат таълим стандарти ва ўкув дастури // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т.: 2017 йил 14 (774)-сон, 230-модда. – 233 б.

**Saodat KAMBAROVA,**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyot universiteti O'zbek adabiyoti ta'limi kafedrasi dotsenti, ped. fan. fals. dok. (PhD)*

**Karlygash ASHIRKHANOVA,**

*Qozog'iston Respublikasi K.Dosmukhamedov nomidagi Atyrau Universiteti Xalqaro bo'lim mudiri, fil. fan. fals. dok. (PhD)*

## **ADABIYOT DARSLARIDA “MUALLIF NUQTAYI NAZARI”NI O’RGATISH TAJRIBASIDAN**

**Annotatsiya:** adabiyot darslarida muallif nuqtayi nazari tushunchasidan badiiy matnni tahlil qilish vositasi sifatida foydalanish yozuvchining asardagi o'rni, o'quvchilarda muallif dunyoqarashi xilma-xilligi va murakkabligi to'g'risida yaxlit tasavvurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada muallif nuqtayi nazarini tushunishga ta'sir etuvchi omillar, o'quvchilarni yozuvchi shaxsiyatiga qiziqtirish orqali matnni tushunishga yo'naltirishga doir yondashuvlar mazmuni yorilildi.

**Kalit so'zlar:** *muallif, asar, kitobxon, muallif nuqtayi nazari, yozuvchi tarjimayi holi, matn tahlili, qahramon.*

**Аннотация:** Использование понятия авторской точки зрения на уроках литературы как средства анализа художественного текста служит формированию комплексного представления о месте писателя в произведении, разнообразии и сложности авторской картины мира. В данной статье выделены факторы, влияющие на понимание авторской точки зрения, содержание подходов к руководству пониманием текста путем привлечения читателей к личности писателя.

**Ключевые слова:** *автор, произведение, читатель, авторская позиция, биография писателя, анализ текста, герой.*

**Abstract:** Using the concept of the author's horizon in literature classes as a means of analyzing the artistic text serves to develop a comprehensive idea of the writer's place in the work, diversity and complexity of the author's worldview. In this article, the factors that affect the understanding of the author's horizon, the content of the approaches to guide the understanding of the text by making the readers interested in the writer's personality are highlighted.

**Key words:** *author, work, reader, author's horizon, writer's biography, text analysis, hero.*

Yozuvchi tarjimayi holi va ijodini o'rganishda uning "biografik kaliti"ni topish, dars uchun material tanlashda shaxsiyati, iste'dodi shakllanishi, o'ziga xos pozitsiyasi xususida ma'lumot berish, o'quvchi dunyoqarashiga ta'sir ko'ssatadigan ish turlaridan foydalanish alohida o'rinn tutadi. Adabiyot o'qitishda muallif nuqtayi nazarini tushunmay turib, badiiy asar mazmunini anglab bo'lmaydi [4: 112]. Muallif nuqtayi nazari konsepsiyasini o'rganish bo'yicha tadqiqotimizda O'tkir Hoshimovning 9-sinfda o'rganilishi rejalashtirilgan "Ikki eshik orasi" romanini tanladik. Ushbu mavzu tahlil qilish va tushunish uchun dasturdagি murakkab ishlardan biri hisoblanadi. Asarni o'rganishga o'quv dasturida 2 soat vaqt ajratilgan [3: 71].

D.A.Mazilinaning yozishicha, "Badiiy asarlarida muallif o'rnini gavdalantirishning mumkin bo'lgan

usullari to'g'risida muhim g'oyalarni shakllantirishga yordam beradigan yondashuvlar mavjud bo'lib, ular sirasiga kontekstli, madaniy yo'naliishlarni kiritish maqsadga muvofiq" [2: 157]. Muammoga oid metodik tizim bosqichlari ularning har biri mazmuniga mos ravishda bir yoki bir nechta o'quv mashg'ulotlari davomida va bosqichlarda amalga oshirilishi mumkin.

Tayyorgarlik bosqichi yozuvchi ijodini o'rganishdan boshlanishi maqsadga muvofiq. Tizimda biografiya darslari muhim ahamiyatga ega. Aynan shu o'rinda o'quvchilar yozuvchi shaxsiyati, badiiy dunyosining o'ziga xosligi haqida dastlabki tasavvurni shakllantirilalar. Yozuvchi qaysi asarlarni yaratgani, kitoblarini qaysi o'rinda o'qiganligi, hayoti asarlarida badiiy niyatining aks etishiga qanday ta'sir qilgani haqidagi ma'lumotlar o'rganiladi.

Muallif tarjimayi holini o'rganish. Adib asarlari o'ziga xos falsafiy teranligi bilan ajralib turadi. Qahramonlari xarakteri o'z-o'zidan paradoksal, hatto qarama-qarshidir. U o'zi tasvirlagan voqelikka to'g'ridan-to'g'ri baho bermaydi, lekin har bir asarida hamisha eng yuqori qadriyatlar, odamiylik, rahm-shafqat va haqiqat tarafida turadi. Ijodkor haqiqatning eng qorong'i va xunuk, dahshatli tomonlarini, insонning ichki dunyosini yoritishga tayyor holda tasvirda kitobxon bilan ko'pincha sukut saqlashni afzal ko'radigan mavzularda suhbat qurishga tayyor.

Jarayonda o'quvchilarga adib hayoti va faoliyatining muhim davrlari va faktlarni ko'rib chiqish topshirig'i beriladi. Darsda illyustrativ materiallar: yozuvchi va yaqin qarindoshlari portretlari, hayoti chambarchas bog'liq bo'lgan joylar fotosuratlaridan foydalaniлади. O'quvchilarga dars davomida o'qituvchi topshirig'iga ko'ra XX asrning 2-choragidagi tarixiy-madaniy hayat haqida ma'ruza qilishlari belgilanadi. Yozuvchi haqidagi asosiy ma'lumotlar ijodining davriyligini aks ettiruchi taqdimot orqali o'zlashtiriladi. Mazkur usul ularga yozuvchi tarjimayi holi va ijodida yangi motivlarning paydo bo'lishi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatishga sharoit yaratadi. Adib inson najotini samimiy e'tiqodda va yaxshilik qilish istagini ko'radi. Bunday mulohaza yuritish orqali o'quvchilar yozuvchi ijodining tabiatini qanday o'zgarib borishi, dunyoqarashi badiiy asarlarda qanday aks etishini anglay boshlaydi. Umuman olganda, yozuvchi tarjimayi holi va ijodi bilan tanishtirishga bag'ishlangan darslarning maqsadidan biri o'quvchilarni muallif nuqtayi nazari tushunchasini shakllantirishga tayyorlashdir.

Yozuvchi hayoti va ijodi o'rtasidagi bog'liqlikni tushunmay turib, o'quvchilar muallif toifasi va muallif ongingin matnda gavdalanishi haqida gapirishga tayyor bo'lmaydi. Aynan o'quvchilarning yozuvchi shaxsiyati va taqdiri haqidagi tasavvurlari asosida ularda tarjimayi hol sohibi haqidagi tushunchalarini shakllantirish mumkin. Shu bois O'.Hoshimov tarjimayi holi va ijodini o'rganish uchun badiiy asarni o'rganish tamoyili yozuvchining butun ijodi kontekstida amalgalashiriladi. Natijalarni umumlashtirishda o'quvchilarga "Ikki eshik orasi" romani bilan to'liq tanishish, yaratilish tarixi, muallif hayoti va ijodiga bag'ishlangan mini-viktorinaga tayyorgarlik ko'rish topshirqlari beriladi. Bunda kompozitsiya, sujet, personajlar tizimi, badiiy detal kabi tushunchalarga ta'riflar yozish vazifalari yuklanadi.

Shakllantirish bosqichi. Bu (tahliliy) bosqich ilk darsga tayyorgarlik ko'rishdan boshlanadi. Dastlab mazkur asarni tahlil qilishning muhim jihat - muallif nuqtayi nazari va uni bilish yo'llarini aniqlash ekanligi ajratib olinadi. Dars avvalida tasvirlangan voqelik sujet, tasvirlar tizimi, ularning bir-biri bilan o'zaro ta'siri va badiiy tafsilotlarni o'z ichiga olishi aniqlanadi. Barchasi birgalikda asar mavzusi, muammosi va g'oyasini ochib

beradi, muammo va g'oya muallif nuqtayi nazarini aks ettirishini anglashlariga xizmat qiladi.

Navbatdagi ish – romanning umumiy ma'nosi shakllantirish va undan matnga o'tish, parcha yoki butun asarning umumiy ma'nosi haqidagi dastlabki g'oyani aniqlashdan iborat bo'ladi. Shu sababli mikrokontekstlarni ko'rib chiqishni boshlashdan avval, aynan shu bosqichda, butun asarga muallif nuqtayi nazarining umumlashtirilgan formulasini kiritish muhim sanaladi. Natijada o'quvchilar ularning har birini matning umumiy ma'nosi bilan bog'lab, asta-sekin shaxsий fikrlarini chuqurlashtirishga harakat qilishadi.

Asardagi muallif o'mnini tushunishga olib borishga doir qo'shimcha mashg'ulotlar. O'quv dasturidagi soatlar cheklanganligi alohida darslarni tashkil etishni taqozo etadi. Asarning nomi "Ikki eshik orasi" tarzida qo'yilgan. Sarlavhani jamoaviy suhbat tarzida tahlil qilish jarayonida sujet orqali muallif nuqtayi nazarini ifodalash va personajlarning o'zaro ta'siriga alohida e'tibor beriladi. Binobarin, asardagi har bir qahramon ongi shaxsiyatidan ajralmas holda ma'lum bir g'oya tashuvchisi, ichki kechinmalari, voqealar uning xarakteristikasi uchun muhim va ramziyidir. Romanda muallif nuqtayi nazarining bilvosita va bevosita ifodalaniganligiga o'quvchilar e'tibori qaratiladi.

Romanning hech bir joyida bevosita muallif baholari, to'g'ridan-to'g'ri ifodalangan fikrlar yo'q. O'quvchilar barchasini faqat asarni oxirigacha o'qib chiqish orqaligina tushunishi mumkin. Bu yerda asar qurilishining turli darajalari (tasvirlar tizimi, sujet, janri, muammo, konflikt, psixologizm va h.k.) o'zaro ta'sirini sezmasdan turib, muallif nuqtayi nazarini tushunib bo'lmaydi. Navbatdagi bosqichda mikrokontekstlar orqali muallif nuqtayi nazarini ifodalashning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi. Bu jarayon muallif va o'quvchilarni idrok etishga tayyorlash maqsadiga qaratilgan suhbat asosida quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Muallif butun roman davomida har bir qism va boblardagi qahramonlar nazariyasi bilan bahs yuritadi, lekin bu bahs muallifning bevosita aralashuvini bilan ifodalanmaydi. Romandagi to'qqiz qahramon nazariyasiga muallifning munosabati qayday aks etgan?

2. Romanning kompozitsion qurilishi muallif nuqtayi nazarini ochishga qay tarzda yordam bergan?

3. Romanda muallif nuqtayi nazarini ifodalash shakllari xilma-xil, ammo har bir hikoyachining boshqa personajlar bilan o'zaro munosabati alohida ahamiyatga ega. Qahramon (masalan, Robiya va h.k.) ular orasida qaysi o'rinni egallaydi?

4. Romanning boshqa qahramonlarini g'oya tashuvchi deyish mumkinmi? Sizningcha, muallifning ularga munosabati bir xilmi? Asoslashga urining.

5. Qahramonlar va ularning g'oyalari muallif nuqtayi nazarini aniqlashga yordam beradimi?

Har bir qahramonning o'ziga xos pozitsiyasi bor. Muallif qahramonlarga xarakteri, yaratish maqsadidan kelib chiqib, turlicha munosabatda bo'ladi. U yoki bu nuqtayi nazarni afzal ko'radi, ammo bu yerda muallif pozitsiyasi qaysidir qahramonning qarashlariga to'g'ri kelmasligi ham mumkin. O'quvchilarga asardan Toshkent va uning atrofidagi qishloqlar, suv havzalari haqidagi iqtiboslarni olish uchun vazifalar beriladi.

Asarda Alvasti ko'priki, Bo'rijar, No'g'ayqo'rg'on, Ko'tarma, jar, yong'oqzor tasvirlari qanday rol o'yagan, degan savolga javob berish topshiriladi. Kelgusi tahlili bosqichda qabul qilingan mikro-kontekstlar bilan ishlashadi. Darsda toponimlar tahlil qilinadi, mikrokontekstlar bilan ishlashga o'tiladi.

Asarda muhim ramziy tafsilotlar mavjud, hatto makon tasviri ham o'ziga xos. Romannning asosiy voqealari Toshkent atrofidagi qishloqlarda sodir bo'ladi. Asarda muallif tomonidan ko'rsatilgan shahar qishloqlaridan – Janggoh, "Qizil dehqon" yoki tekstil zavodi, Xastimom, Ko'kaldosh madrasalari, turli binolardan iborat Toshkent obrazi alohida ahamiyatga ega. Ushbu tasvirni sinfda tahlil qilish uchun mikrokontekstlar – shaharga keng tavsif beradigan va ko'plab subtekst ma'lumotlarini o'z ichiga olgan matn qismlari tanlanadi. O'quvchilar ushbu parchalarni diqqat bilan o'qib, Toshkent obrazining xususiyatlarini ajratib ko'rsatishlari zarur bo'ladi. Ularni tahlil qilish, fikrlarini umumlashtirish hamda asarning kompozitsion tuzilishini o'rganish orqali ushbu obrazning qanday o'rni borligi aniqlanadi. Toshkent qiyofasiga nisbatan muallif nuqtayi nazari va umuman asarda ifodalangan muallif pozitsiyasining umumlashtirilgan ma'nosini ochishdagi roli belgilanadi.

Xulosa qilganda, muallif nuqtayi nazarini o'rganishda o'quvchilar e'tiborini uning ijodiga ta'sir qilgan fakt va voqealarga qaratish muhim o'rinni tutadi. Jarayonda biografik material tanlash va tizimlashtirish, tanlangan materialni yetakchi g'oyaga bo'ysundirish; yozuvchining hayot va ijod yo'llini belgilash zarur. Ko'rinadiki, muallif nuqtayi nazari bo'yicha tizimli yondashuvlar badiiy asarlarni o'qishga bo'lgan qiziqishni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi va savodli kitobxonni tarbiyalash omilidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyot [Matn]: darslik-majmua / B. To'xliyev [va boshq.]. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 184-bet.
2. Мазилина Д.А. Понятие "авторская позиция" как инструмент анализа литературного произведения в профессиональных образовательных организациях. Дисс. ... канд. пед. наук. – М., 2018. 256 с.
3. Umumiyo o'rta ta'limning Adabiyot fanidan "Milliy o'quv dasturi". Loyiha. – Toshkent: 2021. 212-bet.
4. Зевакина А.Ю., Петриева Л.И. Специфика изучения литературы в средних профессиональных образовательных учреждениях социально-экономического профиля: монография. – М.: Флинта: Наука, 2010. – 112 с.

R.X.NIYOZMETOVA,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, pedagogika fanlari doktori*

## ADABIY MATN VA MUSTAQIL FIKRLASH

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining "O'zbek tili" fanidan o'zbek adabiyoti namunalari ni o'rganish yuzasidan tashkil etiladigan darslarda o'quvchilarning mustaqil fikrlashlarini uyg'otish bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish borasidagi barcha ishlarning muvaffaqiyati garovi sanaladi. Yoshlarning mustaqil fikrlashlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berish esa samarali ta'limning muhim omillari sirasiga kiradi. Tafakkur mustaqilligi ma'lum darajada bilim olishdagi mustaqillikka tayanadi, o'z navbatida uni ma'nani va ruhan oziqlantirib turadi.

Adabiy asarda so'zga badiiy obrazlilik yukланади. Bu holat bir tildan ikkinchi bir tilga qilinadigan tarjima-da ham uslubiy bo'yoqli muqobilarni tanlashga undaydi. Grammatik vositalar xususida ham xuddi shunday usuldan foydalanish zaruriyatiga duch kelish mumkin. O'quvchi yuqorida ko'rsatilgan har bir holatda ikki til-

dagi muqobilarni ikkilanmay o'ziga ishonib tanlay olishi kerak. Xullas, adabiy materialni o'rganishda qadam-baqadam mustaqil qaror qabul qilib borishni taqozo etadigan jihatlar nihoyatda ko'p.

O'quvchilarning mustaqil fikrlashini mustaqillik namoyon etishdan tashqari, yana ikki xil ma'noda tushunish mumkin:

1) keng ma'noda, ya'ni o'quvchida "shaxslik sifatlarini shakllantirish, ma'naviy kamolotini ta'minlash va bu yo'lda mustaqil mulohaza yuritishga o'rgatish" [1] mazmunida;

2) tor ma'noda, ya'ni bilimlarni o'zlashtirish, ta'lim jarayonida faol ishtirot etish ma'nosida.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejleri o'quvchilarida mustaqil fikrlash bilan bog'liq shaxslik sifatlarini barcha o'quv fanlari darslarida shakllanib boradi. O'zbek tili mashg'ulotlari ana shu yo'nalishdagi ishlar